



BUYRUQ | ПРИКАЗ

20.05 y. « 06 ». 03 № 152

**Korrupsiyaga qarshi kurash tartib-taomillari samaradorligini nazorat qilish va monitoring o'tkazish metodikasini hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimining holati to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va taqdim etish tartibini joriy etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RBQ-419-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli Qaroriga muvofiq, shuningdek, "Uzbekistan Airways" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga mos ravishda takomillashtirish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. "Uzbekistan Airways" AJning me'yoriy hujjatlari elektron kutubxonasida e'lon qilingan kundan boshlab quyidagi hujjatlar ilovaga muvofiq tasdiqlangan va amalga kiritilgan hisoblansin:

- "Korrupsiyaga qarshi choralar samaradorligini kuzatish va nazorat qilish uslubi";
- "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom."

2. "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruvi raisining o'rinbosarlari, departamentlar, boshqarmalar, xizmatlar va bo'limlar rahbarlari:

2.1. Shaxsiy tarkib bilan yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni o'rganishni tashkil qilsin va 2025-yil 31-mart kuniga qadar amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Komplayens- nazorat xizmatiga axborot taqdim etilsin.

3. Komplayens-nazorat xizmati boshlig'i A.A.Abduvaxabov:

3.1. Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni "Uzbekistan Airways" AJ me'yoriy hujjatlari elektron kutubxonasiga joylashtirilishni ta'minlasin;

4. Buyruq Boshqaruv raisining o'rinbosarlari, departamentlar, boshqarmalar, xizmatlar va bo'limlar rahbarlariga yetkazilsin.

5. Buyruq ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisining rejim va aviatsiya xavfsizligi bo'yicha o'rinbosari S.R.Uralov zimmasiga yuklantilsin.

**Boshqaruv raisi**

**Sh.Sh.Xudaykulov**